² Андреева И.Н. Эмоциональный интеллект как феномен современной психологии. - Новополюцк: ПСУ, 2011. –С. 36.

³ Андреева И. Н. Кўрсатилган манба. – С. 36.

⁴ Ионова С.В., Штеба А.А. Смешанные эмоции: к вопросу о лингвистической репрезентации и метаязыке описания// Вопросы психоллингвистики. – 2019. –№ 2 4). – С. 64.

⁵ Виллонас В.К. Психология эмоциональных состояний. М.: Изд-во МГУ, 1976; Ильин Э.П. Эмоции и чувства. СПб.: Питер, 2006. – 528 с.; В.П.Зинченко Сознание и творческий акт. М.: Языки славянских культур, 2010. – 592 с.

билдиришга имкон беради.

Шунинг учун хиссиётлар “физиологик, когнитив, мотивацион, эмпирик каби кўплаб психологик қуйи тизимлар чегараларини кесиб ўтган тартибли реакциялар”¹; “инсоннинг рухий ва физиологик ҳолатларининг ички, субъектив тажрибасини ифодаловчи, ёқимли ёки ёқимсиз хислар билан кечадиган психофизиологик хусусиятлар синфи”²; “реаллик билан инсон муносабатларининг ўзига хос шакли, бу уларнинг инсон эҳтиёжларига мос келиши ёки мос келмаслиги билан боғлиқ”³ дея таърифланади. Туйғулар ўзларида ҳам сезгиларни, ҳам идрокларни синтез қилади, оламдаги ўзгаришларга жавоб реакциясининг махсус шакли учун асос бўлиб хизмат қилади. Туйғулар, В.И.Шаховскийнинг сўзларига кўра, “дунёни акслантириш шакллари билан бирини ифодалайди, улар реал оламдаги нарсалар ва ҳодисаларни эмас, балки улар билан бўлган муносабатларни, яъни нарсалар ва ҳодисаларнинг хусусиятлари эмас, балки уларнинг инсон ҳаёти учун аҳамиятини акс эттиради”⁴. Бундан ташқари, “ҳис-туйғулар онгинг мотивацион асоси бўлиб хизмат қилади ва психоллингвистларнинг маълумотларига кўра ҳар қандай фикр инсон онгида дастлаб эмоционал қиёфада пайдо бўлади”⁵. Билим олиш жараёнининг, фикрлашнинг ҳис-туйғулар ва идрокка бўлиниши, алоҳида когнитив ва эмоционал тизимларнинг мавжудлиги ҳақидаги ғоянинг ўзи, И.Н.Андреевнинг фикрига кўра, “эскирган ва кўпчилиқ тадқиқотларга мос келмайди, уларнинг мақсади эмоционал ва когнитив жараёнлар ўртасидаги муносабатларни ўрганишдир”⁶. Бошқача айтганда, А.М.Новиков таъкидлаганидек, “ҳис-туйғулар инсоннинг атрофдаги одамларга, табиат ҳодисаларига ёки ижтимоий ҳаётга бўлган субъектив муносабати бўлса-да, улар бутун инсон руҳияти сингари объектив дунёни акс эттиради”⁷. Шу билан бирга, идрокдан фарқли ўлароқ, улар объектларнинг ўзларини, нарсаларини эмас, балки уларни шахс томонидан идрок этиш, баҳолашни акс эттиради.

Хиссиётларни идрок этиш ва англашдаги ўзгаришлар инсон кечинмалари, турли эмоционал ҳолатларни акс эттирувчи эмоционал концептларга илмий қизиқишнинг ортишига сабаб бўлди.

Адабиётлар рўйхати:

1. Солодилова И.А., Шепеля И.В. Оценочность и эмотивность в семантике слова// Вестник Оренбургского государственного университета. – 2015. – № 11 (186). – С. 173.
2. Андреева И.Н. Эмоциональный интеллект как феномен современной психологии. - Новополюк: ПСУ, 2011. –С. 36.
3. Ионова С.В., Штеба А.А. Смешанные эмоции: к вопросу о лингвистической репрезентации и метаязыке описания// Вопросы психоллингвистики. – 2019. – № 2 4). – С. 64.
4. Виллюнас В.К. Психология эмоциональных состояний. М.: Изд-во МГУ, 1976; Ильин Э.П. Эмоции и чувства. СПб.: Питер, 2006. – 528 с.; В.П.Зинченко Сознание и творческий акт. М.: Языки славянских культур, 2010. – 592 с.
5. Комарова Э.П. Эмоциональный интеллект: понятие, роль и формы интеграции в социокультурное общение// Вестник Воронежского государственного технического университета. – 2014. – Том 10. – № 2 – 3. – С. 44.
6. Азимов Э.Г. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам) / Э. Г. Азимов, А. Н. Щукин. – М., 2009. – С. 355.
7. Новиков А.М. Педагогика: словарь системы основных понятий. – М.: Издательский центр ИЭТ, 2013. – С. 259.
8. Шаховский В.И. Категоризация эмоций в лексико-семантической системе языка [Текст] / В.И. Шаховский. - Воронеж: Воронежский ун-т, 1987. – С. 23-24.

¹ Комарова Э.П. Эмоциональный интеллект: понятие, роль и формы интеграции в социокультурное общение// Вестник Воронежского государственного технического университета. – 2014. – Том 10. – № 2 – 3. – С. 44.

² Азимов Э.Г. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам) / Э. Г. Азимов, А. Н. Щукин. – М., 2009. – С. 355.

³ Новиков А.М. Педагогика: словарь системы основных понятий. – М.: Издательский центр ИЭТ, 2013. – С. 259.

⁴ Шаховский В.И. Категоризация эмоций в лексико-семантической системе языка [Текст] / В.И. Шаховский. - Воронеж: Воронежский ун-т, 1987. – С. 23-24.

⁵ Шаховский В.И. Эмоциональная картина мира в вербальной презентации// Мир русского слова. – 2019. – № 1. – С. 36.

⁶ Андреева И. Н. Кўрсатилган манба. – Б. 38.

⁷ Новиков А.М. Кўрсатилган манба. – Б. 258.

PSYCHOLOGICAL SCIENCES

МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ YOSHIDAGI BOLALAR IDROKINI RIVOJLANTIRISHDA TARBİYACHI VA PSIXOLOGLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI.

M. N. Ergasheva –

JDPI pedagogika - psixologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar idrokini rivojlantirishda ota - ona, tarbiyachi hamda psixologlarning o‘rni xususida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh davri, idrok, o‘yin, tarbiyachi, ota-ona, mashg‘ulot, kuzatuvchanlik.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar o‘zining ko‘lami va sifati jihatidan yangi bosqichga chiqib, jamiyatning barcha bo‘g‘inlarida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Mazkur jarayonda ta‘lim tizimiga alohida e‘tibor qaratilib ta‘limning uzviyligi va tizimlilik ta‘minlanishiga erishildi. Ta‘limdagi islohatlarning samarasi o‘laroq ta‘limning asosiy va yangi bo‘g‘ini “Maktabgacha ta‘lim” tizimi yaratildi. Shundan ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlash, ularga ta‘lim - tarbiya berish jarayoni o‘ta mas‘uliyatli ishga aylanib ulgurgan.

Bizga ma‘lumki, idrok bilish jarayonlarining tarkibiy qismiga kirib, bola tarbiyasi va kelajagida katta ahamiyat kasb etuvchi murakkab jarayon demakdir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish jarayonlarini ayniqsa, idrokni shakllantirishga beriladigan e‘tibor ularning kelajakda kim va qanday inson bo‘lib shakllanishini belgilab beradi desak, qaysidir ma‘noda ayni haqiqat bo‘ladi.

Bog‘chada idrokni shakllantiruvchi turli usul va vositalar qo‘llanilgani holda, bilish jarayonlariga katta urg‘u beriladi. Dunyoda yuz berayotgan hodisalar hamda o‘zgarishlarni idrok etish bilan bilish jarayoni boshlanadi. Idrokning rivojlanishi bolaning aqliy rivojlanishining asosidir. Shuning uchun ham bolaga bog‘cha yoshidayoq tarbiyachilari qolaversa, uy sharoitida ota-onalar tomonidan idrokini o‘stiruvchi mashqlar bajartiriladi.

Ahamiyat beradigan bo‘lsak, maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o‘zgarishlari bo‘lishini inobatga olgan holda 3 davrga ajratib o‘rganiladi:

4. (3—4 yosh) kichik maktabgacha davr, (kichik bog‘cha yoshi),
5. (4—5 yosh) o‘rta maktabgacha davr, (o‘rta bog‘cha yoshi),
6. (6—7 yosh) katta maktabgacha davr (katta bog‘cha yoshi)ga ajratish mumkin. [1]

Aytib o‘tish lozimki, bolaning yoshiga, xarakteri hamda qiziqishlariga mos ravishda munosabatda bo‘lish uning psixologiyasiga, bilish jarayonlariga kuchli ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda idrokning rivojlanishi bolaning shaxsiyatini to‘liq shakllantirish uchun muhim shartdir. Bu jarayon murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, dunyoni to‘g‘ri aks ettirishga, moslashishga va jamiyatda qulay bo‘lishga yordam beradi. Erta yoshda idrokning rivojlanishi bizga atrofimizdagi dunyoni bilish, narsalar va hodisalarni idrok etish imkoniyatini beradi.

Bog‘cha yoshidagi bolada idrok etish jarayonining shakllanishi uning butun hayoti, o‘qish va mehnat faoliyati davomida zarur bo‘lgan juda muhim qismidir.

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim muassasalari psixologlari va tarbiyachilari oldida turgan mas‘uliyatli vazifalardan biri - bolalarda idrokni shakllantirishning samarali usullari hamda vositalarini ishlab chiqish va mavjud usullardan o‘rinli foydalanishdir. Bunda yuqorida sanab o‘tilgan davrlarga ham alohida e‘tibor berish kerak-ki, har bir davrda usul va vositalarning ma‘lum qismlarida o‘zgarishlar yuz berishi yoki almashinuvi tabiiy holdir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada kuzata bilish qobiliyati kuchli darajada shakllana boshlaydi. Kuzata bilish qobiliyatining o‘shishiga tabiat burchaklarida olib boriladigan ishlar, sayr va ekskursiyalar yordam beradi. Bolalar narsalarni kattalarning rahbarligida, kattalar belgilab bergan maqsadga muvofiq e‘tibor berib kuzatadilar. Kuzata bilish maktabgacha tarbiya yoshida, asosan, tarbiya jarayonida o‘rib boradi.[3]

Bog‘chada idrokni rivojlantira borish asosida kuzatuvchanlikni ham tarbiyalash kerak. Bog‘chada turli didaktik mashg‘ulotlar o‘tkazish, ekskursiyalar tashkil qilish orqali bolalarda kuzatuvchanlikni

tarbiyalab boriladi.

K. D. Ushinskiy kuzatuvchanlikni o'zlashtirish vazifasiga katta ahamiyat beradi. «Agar ta'lim bolalarning aqlini o'zlashtirish uchun bo'lsa, — deb yozgan edi K. D. Ushinskiy, — ularning kuzatuvchanlik qobiliyatini mashq qildirish kerak» [4]

Maktabgacha yoshdagi bolalarda idrokni samarali rivojlantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi:

➤ bolaning qiziqishini uyg'otish uchun bosqichma-bosqich ishlatilishi kerak bo'lgan ranglar, shakllar va o'lchamlarni idrok etishga qaratilgan didaktik (to'plar, tayoqlar, geometrik shakllar, kichik narsalar);

➤ asosiy ranglar va soyalarni idrok etishga qaratilgan rang;

➤ rolli o'yinlar (ertaklar, adabiy asarlar va multfilmlar asosida o'yinlar);

Maktabgacha yoshdagi bolalarda idrokning samarali rivojlanishi foydali ko'nikmalarni egallashga va shaxsning qobiliyatlarini ochishga imkon beradi. Idrokni rivojlantirish quyidagi tadbirlarga asoslanishi kerak:

➤ o'yin (jumboqlar, mozaika va boshqalar);

➤ nozik (rasm, gerbariy, hajmli inshootlar, ilovalar va boshqalar);

➤ shartli mehnat (o'yinchoqlarni tozalash, qutilarga narsalarni tarqatish, gullarni sug'orish va boshqalar). [5]

Bolaning idrokini shakllantirishda turli tuman o'yinlar yetakchi o'rin egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda idrok va kuzatishni rivojlantirish uchun o'yin juda muhimdir. O'yinda bolalar ob'ektlarning turli xil xususiyatlarini - rangi, shakli, hajmi, vazni bilan farqlaydilar va bularning barchasi bolalarning harakatlari bilan bog'liq bo'lganligi sababli, bu turli analizatorlarning o'zaro ta'siri hamda ob'ektlarning ko'p tomonlama ko'rinishini yaratish uchun qulay shart-sharoitlar eshigini ochib beradi.

Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining kundalik o'yin faoliyatlarida juda ko'p narsalarga to'qnash keladilar. Bu narsalarni bilganlaricha idrok qilib, bir- birlariga tushuntiradilar. O'yinlarning ham bir qator turlari: harakatli, intellektual, musiqali, didaktik, rasmi, jumboqli va hokozolar bola ongini o'zlashtirishga, idrokini shakllantirishga katta ko'mak beradi, albatta. Umuman o'yin faoliyatida ularning idroki to'xtovsiz rivojlanib boradi. Qolaversa, bog'cha davrida bolalarga rasm chizish, tayyor rasmlarni bo'yash, qo'l mehnatidan foydalangan holda applikatsiyalar yasash, rangli o'yinchoq (lego)lardan inshootlar qurish ham bolada avvalambor sezgini rivojlanishiga, keyinchalik rang, hajm va o'lchovni aniqlashda ahamiyatli bo'lgan idrokni shakllantirishga yordam beradi.

Bolalar nafaqat bog'chada tarbiyachilar tomonidan idrokni shakllantirishga oid faoliyatda ishtirok etishi, balki ota-onalarining sa'y-harakatlari bilan o'z uylarida ushbu faoliyatni bir qator uy yumushlari bilan ham amalga oshiradilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar. Bu jarayonda bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o'rgatishlari lozim.

L. S. Vigotskiyning ta'kidlashicha, "bu yoshdagi barcha funksiyalar idrok etish orqali va idrok yordamida amalga oshiriladi" [4]

Demak, har qanday usul (agar bu usul juda oddiy bo'lsa ham) bolaning idrokini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa, uni albatta qo'llash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarov "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018. — 600 b.3. P. I. Ivanov, M. E. Zufarova "Umumiy psixologiya" Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2008 - 480 b.

4. Tanlangan asarlar, 6-tom, PFA, Moskva, 1949-yil, 267-bet

5. <https://zobiki.ru>

6. P. I. Ivanov, M. E. Zufarova "Umumiy psixologiya" Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2008 - 480 b.

TECHNICAL SCIENCE

QUYOSH QURITGICHI QURILMASINI YARATISH VA ISHLASH REJIMINI TADQIQ QILISH

Mavlonov Ulug'bek Mirzoqulovich

Buxoro davlat universiteti fizika kafedrası o'qituvchisi

Hakimova Sabina Shamsiddin qizi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini

mexanizatsiyalash muhandislari instituti

Buxoro filiali assistenti

qodirov.jobir@mail.ru

Hakimov Bexruz Temir o'g'li

Buxoro davlat universiteti fizika kafedrası magistranti

Anatatsiya: Meva-sabzavotlarni (jumladan o'rik) quritish va minerallashgan suvlarni tuzlardan tozalash maqsadlarida kombinatsion quyosh qurilmasining haqiqiy o'lchamlaridan besh marta kichraytirilgan shaklda konstruksion modelini yaratish, ikki maqsad uchun ham ishlash rejimini va issiqlik texnikasi xarakteristikalarini o'rganish.

Kalit so'zlar: Meva-sabzavot, bog'dorchilik, shaffof qatlam,

Meva sabzavodlarni yetarlicha yetishtirish potentsialiga ega bo'lgan "Bog'dorchilik" fermerlik xo'jaliklari rahbarlari o'zlarining foydali mablag'laridan kelib chiqib, mahaliy resurslardan foydalangan holda qurilmani yaratishlari mumkin. Olib borilayotgan ishdan olingan natijalar faqatgina tashqarida quritilgan mevalarning sifatiga va miqdoriga qarab qurilma ichida quritilgan meva sifati va miqdorlariga qarab solishtirildi.

Quyosh meva quritgichlari asosan shaffof qatlam, havo aylanishini taminlovchi tirqishlar, quritiladigan maxsulot uchun joy va devorlardan iborat bo'ladi. Issiqxonaning ish tamoyili quyosh nurlari shaffof qatlamdan o'tadi va ichki havo hamda quritkich elementlari tomonidan yutiladi. Yutilgan energiya issiqlikka aylanadi. Quritgich temperaturasi shu energiya hisobiga shakllanadi.

Qurilmaning pastki tirqishlaridan kirgan temperaturasi past bo'lgan havo oqimi quritgich ichiga kirib temperaturasi oshadi shu bilan birgalikda quritish uchun qo'yilgan maxsulotning namligini ham bug'latib yuqoridagi tirqishdan olib chiqadi. Hozirgi kunda quyosh energiyasi etarlicha ko'p bo'lgan joylarda, ayniqsa, janubiy Osiyo hududlarida quyosh energiyasidan samarali foydalanib, quyosh radiatsiyasini suv chuchitgichlar uchun akkumulatsiyalashdagi izlanish va tadqiqotlar xalq xo'jaligida amaliy ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Quyosh meva quritgichi-chuchitgichi qurilmasining eksperiment natijalari. Yuqorida keltirilgan usullar asosida Meva sabzavotlarni quritish va minerallashgan suvni tuzlardan tozalash uchun, ya'ni ikki maqsad uchun mo'ljallangan kombinatsion quyosh qurilmasi yaratildi. Qurilma mevalar etishtirilgandan keyin ularni quritish davri yoz faslidan boshlab kuzning o'rtalarigacha davom etadi, shu davrda taklif etilayotgan qurilmamiz ishlatiladi. Yilning qolgan kunlarida esa ushbu qurilmani minerallashgan suvni tuzlardan tozalash, ya'ni chuchitish (dissillash) uchun qo'llash maqsad qilib olingan.

Qurilmaning yoqlari gorizontga nisbatan 50 va 40 gradusda tayyorlanadi. Qurilma quritgich sifatida ishlatilganda yon yoqlaridan gorizontga nisbatan 40 gradusda bo'lgani janubga qaratiladi. Qurilma minerallashgan suvni tozalash maqsadida ishlatilgan taqdirda yon yoqi gorizontga nisbatan 50 gradus bo'lgani janbga qaratiladi. Qurilmaning g'arbga qaratilgan qismida minora o'rnatilgan minoraning o'lchami qurilmaning uzunligiga nisbatan bir yarim marta uzun bo'ladi. Namuna sifatida qurilmada quritilgan, tashqi muhitda quritilgan hamda oltingugurt bilan bug'lantirib quritilgan o'rik mahsulotlari 1 a) va b) – chizmada tasvirlangan.



a) b)
1-chizma. Quritilayotgan meva sabzavotlar tasviri.

Qurilmaning ichidagi temperaturalar farqi hosil bo'lishiga ishonch hosil qilish uchun qurilmaning butun hajmi bo'yicha 14 (o'n to'rta) **RT-2** tipli elektron ko'rsatgichli termoparalar ishlatildi. Tashqi muhit temperaturasi simobli temometrlar bilan quyoshda va soyada o'lchangan.

RT-2 tipli elektron ko'rsatgichli termoparalar texnik xarakteristi kalari:

-temperaturani o'lchash chegarasi; $-50^{\circ}C \approx +70^{\circ}C$

- o'lchash xatoligi $\leq -20^{\circ}C$ 0,1 ($\geq 20^{\circ}C$)

Ma'lum bo'lishicha agar tajriba jarayonida minoraning ustki qismi ochiq bo'lib qurilmaning yon devorida qo'yilgan tirqish yopiq bo'lsa, unda qurilma ichidagi nuqtalar temperaturasi yon devorida qo'yilgan tirqish ochiq bo'lgandagi qurilma ichidagi temperaturadan doimo $3-5^{\circ}C$ yuqori bo'ldi.

Quyosh radiatsiyasi o'lchash aktinometr *AT-50* va galvonometr *ÅÑA-1* bilan amalga

oshirildi. Ochiq havoda gorizont tekislikdagi to'g'ri quyosh radiatsiyasining yig'indi miqdori o'rtacha bir sukada $24,5-25 \frac{Mj}{m^2}$ ni tashkil qildi.

Shundayoq qilib, meva sabzavotlarni qurishning yangi samarali jarayoni bu past temperaturada havo oqimi bilan quritish ekanligini bilgan holda qurilmada mahsulotimizni quritish asosan qurilmaning yon tomoni tirqishi ochiq, minora ochiq holatda quritish kerakligini lozim topdik. 2017-yilning 3-7 iyun kunlari o'tkazilgan tajribalarda quyosh radiatsiyasining yig'indi miqdori o'rtacha bir sutkada $24,5-25 \frac{Mj}{m^2}$ bo'lgan.

Adabiyotlar

1. Кодиров Ж.Р., Маматрузиев М., Составление программного обеспечения, алгоритм и расчет математической модели применения свойств солнечного опреснителя к точкам заправки топливом.// Молодой ученый, (2018) С 50-53.


2. Кодиров Ж.Р., Маматрузиев М. Изучение принципа работы устройства насосного гелио-оводоопреснителя.//Международный научный журнал «Молодой ученый», 26 (2018) С 48-49.

Ravshanov Mustaqim Tavakalovich
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi.

Annotatsiya: Molekulalararo o'zaro ta'sir kuchlarining tabiati, xususiyatlari bir xil tabiatga ega bo'lgan molekulalararo kuchlarining guruhlariga ajralishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: molekula, o'zaro ta'sir kuchi, elektr kuchi, Van-der-Vaals kuch, dipol moment, qutblanish, oriyentatsion, induksion, dispersion

Atomlar orasidagi, istalgan ikkita molekula orasida ham molekulalararo o'zaro ta'sir kuchlari deb nomlanuvchi elektr kuchlari ta'sir qiladi. Molekulalararo o'zaro ta'sir kuchlari ko'pincha Van-der-Vaals kuchlari deb ataladi.



1-rasm

Molekulalararo kuchlar elektrostatik bo'lib ular tortishish va itarishish kuchlaridan iborat. Itarishish har xil molekulalarning elektron qobiqlarining o'zaro ta'siri bilan aniqlanadi, tortishish esa ularning dipol momenti va qutblanuvchanligiga bog'liqdir. Molekulalararo kuchlar qisqa ta'sirlashuvchi kuchlar hisoblanadi va zarrachalar orasidagi masofaning oshishi bilan tortishishga nisbatan itarishish tez kamayadi. Bir xil tabiatga ega bo'lgan molekulalararo kuchlarining ta'siriga qarab uch guruhga ajratilgan: 1. Oriyentatsion 2. Induksion 3. Dispersion

1) **Oriyentatsion ta'sir.** Bu kuch qutblangan molekulalar orasida vujudga keladi. Qutblangan molekulalar bir biriga nisbatan ma'lum tartib bilan joylashadi. Ularning qarama qarshi ishorali qutblari bir biriga yaqinlashgan vaziyatda o'rtnashadi. Natijada qarama-qarshi ishorali qutblar elektrostatik kuch bilan bir biriga tortiladi. Dipollar orasidagi bunday kuch oriyentatsion kuch deb ataladi. Kizomi Van-der-Vaals kuchi oriyentatsion effektdan iborat, deb faraz qilgan edi. Shu sababli bu kuch Kizomi kuchi deb ham ataladi.

$$\text{Oriyentatsion kuchning energiyasi: } U_0 = -\frac{2}{3} \frac{\mu^2 \mu^2}{\kappa T r^6}$$

Bu yerda m_1, m_2 – bir biriga ta'sir etayotgan molekulalarning tug'ma dipol momenti; k – Boltzman doimiysi; r - molekular orasidagi masofa; T - absolyut temperatura.

2) **Induksion kuch.** Bu kuchni Debal kashf etgan. Bir biriga yaqin kelgan molekulalarning biri qutblangan, ikkinchisi qutblanmagan (tug'ma dipoli bo'lmagan) molekula deb faraz qilaylik. Bu vaqtda tug'ma dipolsiz molekula tug'ma dipoli molekula ta'sirida qutblanadi. Natijada ikkinchi molekuladan induksion dipol paydo bo'ladi. Shunday qilib, bu molekulalar bir biri bilan ta'sirlashadi. Bu ta'sirlashuv kuchi induksion kuch deyiladi. Uning energiyasi qutbli molekulaning tug'ma dipoli m ga va tug'ma dipoli bo'lmagan molekulaning qutblanuvchanligiga a ga proporsional bo'ladi.

$$U_u = -\frac{a\mu^2}{r^6}$$

3) **Dispersion kuch.** Tugʻma dipoli boʻlmagan molekularlar ham bir biri bilan tortishadi, aks holda bular suyuqlikka aylanmasligi kerak edi. Bunday molekularlar orasida oriyentatsion va induksion tortishish kuchlari boʻlishi mumkin emas. Ular dispersion kuch bilan tortishib turadi. Bu kuch elektronlar yadro atrofida ayrim vaqtda notekis taqsimlanishidir. Vodorod atomi uning yagona elektroni yadroning goh bir tomonida, goh ikkinchi tomonida boʻlishi mumkin. Natijada bir onli dipol vujudga kelib, elektrik simmetrik molekularlarda oʻrtacha bir onli dipol momenti 0 ga teng boʻlsada, bir onli dipol qoʻshni molekularlarga taʼsir qilib, uni induksiyalaydi. Masalan argon atomi yadrosi atrofida 18 ta elektron aylanib yuradi. Bir paytda bu elektronlarning yarmi yadroning bir tomonida, qolgan yarmi ikkinchi tomonida aylanib yurishi ehtimolidan uzoq. Shuning uchun argonning bir onli dipol momenti 0 ga teng boʻlishi mumkin emas. Shunday qilib argon dipol momentining qiymati va yoʻnalishi har onli turlicha boʻladi. Lekin elektronlarning uzoq vaqt mobaynida yadroning turli tomonlarida guruhlanish ehtimolligi oʻzaro tengdir. Shunga koʻra, argonning dipol momenti 0 ga teng deyiladi. Tajribada shu oʻrtacha dipol oʻlchanadi. Taʼsir qiluvchi atom yoki molekularni garmonik ostsellyator deb qarash mumkin. Bu holda atom yoki molekularidagi elektronlarni muvozanat holati chegarasida gormonik tebranayotgan zarrachalar deb qarash mumkin. Elektronlarning tebranishi atomning har daqiqada dipol momenti 0 dan farqli boʻladi. Shuning uchun ostsellyatorlar bir-biriga tortiladi. Bunday tortishish kuchi dispersion kuch deyiladi.

Bu kuchni dumaloq simmetrik tuzilishdagi molekula uchun quyidagi tenglama bilan hisoblanadi:

$$U_D = -\frac{3}{2} \cdot \frac{J_1 \cdot J_2}{J_1 + J_2} \cdot \frac{a_1 \cdot a_2}{r^6}$$

Bu yerda J_1, J_2 - birinchi va ikkinchi atomning tahminan ionlashish potentsiallariga teng. $J = h\nu_0 a_1, a_2$ – ularning qutblanuvchanligi, r - molekularlar yadrosi oʻrtasidagi masofa.

Ikkita bir xil atomdan iborat molekula uchun:

$$U_D = -\frac{3}{4} \cdot \frac{h\nu_0 a^2}{r^6}$$

ν_0 – absolyut nol temperaturadagi tebranish energiyasiga mos tebranish chastotasi.

$$U = U_0 + U_u + U_D$$

$$U = -\frac{1}{r^6} \left[\frac{2\mu^4}{3kT} + 2\alpha\mu^2 + \frac{3}{4} h\nu_0 a^2 \right] = -\frac{n}{r^6}$$

Demak molekulararo kuch molekularlar orasidagi masofaning oltinchi darajasiga proporsional ravishda kamayadi. Molekulararo kuch kimyoviy kuchga nisbatan anchagina kichik, tahminan bir necha kilokaloriya atrofida boʻladi. Induksion kuch ham kichik boʻlib, Van-der-Vaals kuchining 5% ni tashkil etadi. Tugʻma dipol momenti kichik boʻlgan molekularlarda oriyentatsion kuch juda kichik, kuchli qutblangan molekularlarda esa birmuncha kattaroq qiymatga ega boʻladi va Van-der-Vaals kuchining asosini tashkil qiladi. Qutblanmagan molekularlarda Van-der-Vaals kuchining asosiy qismini dispersion kuch tashkil etadi.

Adabiyotlar.

1. Горелик В.С. Комбинационное рассеяние света. //Труды ФИАН. 1997.
2. Frish M.J, Head-Gordon M, Pople J.A. Direct analytic SCF second derivatives and electric field properties // J. Chem. Phys. 1990

ПАСТ ПОТЕНЦИАЛЛИ СУВ ЧУЧИТГИЧ ҚУРИЛМАСИНИНГ СИНОВ НАТИЖАЛАРИ

Ибрагимов Салим Сафарович
Бухоро давлат университети

Аннотация. Ушбу мақолада паст потенциалли сув чучитгич қурилмасининг синов натижалари таҳлили келтирилган.


Калит сўзлар: қуёш энергияси, конденсат, резервуар, донорли полиетилен, парник типли, шаффоф сирт.

Бугунги кунда дунёнинг ривожланган мамлакатлари сингари қуёшли юрт Ўзбекистонда ҳам қуёш энергиясидан фойдаланиш кенг йўлга қўйилган.

Қуёш энергиясидан самарали фойдаланиш мақсадида парник типли қуёш сув чучитгичи ишлаб чиқилди. Қурилма ўлчамлари $h=17$ см, $L=83$ см, $h/L=0.2$ м=45°, $n=52$ °. Қурилма сув чучитгичи сифатида аҳоли турар жойларининг ҳар бир оиласига жорий этиш мумкин, ичимлик суви етиб бормаган ва мавжуд бўлган минераллашган қудуқлардан конденсатлар (дистилланган сув) олиш мумкин. Қурилманинг корпуси ичида оралиқ билан унинг икки ён томонидаги деворлари ва тагига минераллашган сув билан иссиқликни ўтказмайдиган қатлам жойлаштирилган. Зангламайдиган пўлатдан тайёрланган резервуар конденсатни йиғиш учун хизмат қилади. Иссиқлик ўтказмайдиган қатламнинг тагида экран полиетиленли плёнкада ўрнатилган. Корпус иссиқлик ўтказмайдиган юза билан бирга чучитгич қисмининг иккинчи тузилиш периметри бўйича маҳкамлаб қўйилган ёруғликни ўтказадиган материалдан экран билан ўраб олинган.

Қуёш энергияси шаффоф сирт орқали ўтади ва қора плёнкали идишни иситади, минераллашган сув қуёш энергиясини ютади. Энергия идишдаги сувни иситади ва сувнинг буғланишига берилади. Ҳосил бўлган буғ-сув аралашмаси корпуснинг ички деворларига ва ёруғликни ўтказадиган юза қисми ички сиртида конденсатсияланади.

Чучитгич корпусининг ички деворларидан ва ёруғликни ўтказадиган юза қисми бўйича оқадиган конденсат чучитгич тагидаги қисмига тўпланади.




1-чизма. Парникли қуёш сув чучитгичининг схемаси. 1-қурилманинг ички қисми; 2,3-икки ён томондаги деворлар; 4,7- ёғоч ва зангламайдиган пўлатдан ясалган минераллашган сув солинадиган идиш; 5-иссиқликни ўтказмайдиган юза; 6- конденсатни филтрига йиғиб беришга мослаштирилган қора плёнка; 8-симлар; 9-резервуар конденсат йиғиш учун хизмат қилади; 10-филтр (конденсатни филтрилаш учун хизмат қилади); 11-йиғилган конденсатни олиш учун жумрак; 12-қурилма таглиги;

Конденсатни тўплаш учун резервуар жойлаштирилган. Қуёш энергиясидан самарали фойдаланишни таъминловчи иссиқлик ўтказмайдиган қатлам ўрнатишнинг конструкциясида ва экранлаштирилган донорли полиетиленли плёнка конструкциясини қўллаш натижасида берилган қуёш сув чучитгичидан лаборатория синовларида қуёш энергияси ичкарига кирадиган чучитгичга нисбатан конденсатнинг максимум чиқиши бир кеча-кундузда сувнинг буғланиши 1 м² юзада 5-6 литр тартибда тўғри келади.



1-расим. Парникли қуёш сув чучитгичининг лаборатория кўриниши.



1-график. Энергетик такомиллашган парник типли қуёш сув чучутгичи синов натижалари графиги.

Хулоса қилиб шуни қайд этиш мумкинки, қуёш энергиясидан самарали фойдаланишни таъминловчи иссиқлик ўтказмай диган қатлам ўрнатишнинг конструкциясида, экранлаштирилган донорли полиетиленли плёнка конструкциясини қўллаш натижасида берилган қуёш сув чучутгичининг умимий самарадорлигини 15-20 % га оширдик.

Адабиётлар

1. Мирзаев М.С., Самиев К.А., Мирзаев Ш.М. Экспериментальное исследование расстояния между испарителем и конденсатом наклонно-многоступенчатой опреснительной установки. // Гелиотехника. 2018. № 6. С.27 -34.
2. В. Razhabov, S. Ibragimov. Heat and mass exchange in a greenhouse sunny designer with a two roof isoled triangle. // Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 198.

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ В УСОВЕРШЕНСТВОВАННОМ НАКЛОННО - МНОГОСТУПЕНЧАТОМ СОЛНЕЧНОМ ОПРЕСНИТЕЛЕ НА МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ

Мирзаев Мирфайз Салимович,
 старший преподаватель кафедры Физики,
 Бухарский государственный университет, Узбекистан
Самиев Камолиддин Аъзамович,
 кандидат технических наук,
 Физико-Технический институт НПО
 «Физика-Солнца» АНРУз, Узбекистан

Аннотация. В данной работе теоретически исследуются свойства многоступенчатого солнечного опреснительного устройства. Приведены результаты расчетов численными методами и анализа уравнений баланса опреснителя. Разработана математическая модель тепловых процессов и предложены температуры в основных элементах солнечного опреснительного устройства, полученные на основе его вычислительного алгоритма.

Ключевые слова: опреснитель, суммарное солнечное излучение, температура.

На основе схемы тепловых потоков в выбранных элементах усовершенствованного наклонного многоступенчатого солнечного водоопреснительного устройства приведены уравнения теплового баланса [1-5] для каждого элемента этого устройства, которые являются нелинейными алгебраическими уравнениями и, используя точные методы, их невозможно решить. Поэтому при решении этих уравнений мы используем численные методы, то есть метод последовательной приближённой аппроксимации

Мы преобразуем уравнения теплового баланса в алгебраические уравнения, используя разделяемую схему нераскрытого вида, и решаем ее относительно температуры каждого элемента. В результате решения системы уравнений, сформированной относительно неизвестных температур, формируются следующие уравнения:

$$T_c^{t+\Delta t} = \frac{(h_{исп} + h_{кв} + h_{изл})T^{t+\Delta t} + (h_{ис} + h_{ксо})T^{t+\Delta t} + \alpha \cdot q^{t+\Delta t}}{h_{исп} + h_{кв} + h_{изл} + h_{ис} + h_{ксо}} \quad (1)$$

- для температуры прозрачного слоя;


$$T_s^{t+\Delta t} = \left[1 - \frac{\Delta t}{c m} (h_{исв} F_{св} + (h_{исв} + h_{кв} + h_{изл}) F_{св}) \right] T_s^t + \frac{\Delta t}{c m} \left[h_{исв} F_{св} T^{t+\Delta t} + (h_{исв} + h_{кв} + h_{изл}) F_{св} T^{t+\Delta t} + (\tau \alpha) F_{св} q^{t+\Delta t} \right] \quad (2)$$

- на наличие соленасыщенной воды внутри устройства;


$$T_0^{t+\Delta t} = \frac{h_{св} T^{t+\Delta t} + h_{св} T^{t+\Delta t} + (\tau \alpha) \cdot q^{t+\Delta t}}{(h_{св} + h_{св})} \quad (3)$$

- для затемнённого дна устройства;

Полученные уравнения решаем итерационным методом. В качестве граничного условия учитывается суточный ход температуры окружающей среды и суммарное солнечное излучение, падающее на поверхности внешних элементов устройства, показанных на рисунке 1.



Фигура 1. Граничные условия для математической модели и вычислительного алгоритма (1 горизонтальная поверхность общая солнечная радиация, 2 температура окружающей среды)



Фигура 2. Температура воды в солнечном опреснительном устройстве (1), температура прозрачного барьера (2) и температура затемненного основания устройства (3).

На рис. 2 показаны изменения температуры насыщенной солью воды в опреснителе, прозрачном слое и затемненном основании устройства в течение дня в усовершенствованном наклонном многоступенчатом опреснительном устройстве. Видно, что максимальная температура соленой воды составляет 72°C , когда общая солнечное излучение, падающее на горизонт в течение дня, составляет $737\text{ Вт} / \text{м}^2$, максимальная температура прозрачного слоя составляет около 65°C , а базовая температура около 78°C .

Разработана математическая модель тепловых процессов, протекающих в усовершенствованной наклонной многоступенчатой солнечной опреснительной установке, и предложены температура воды в солнечной водоочистной установке, температура прозрачного барьера и затемненные базовые температуры устройства на их основе вычислительный алгоритм.

Адабиётлар

1. Ахатов Ж.С., Самиев К.А., Мирзаев М.С., А.Э.Ибраимов А.Э. Исследование теплотехнических характеристик солнечной комбинированной опреснительно-сушильной установки. // Гелиотехника. 2018. № 1. С.20 -29.

2. Мирзаев М.С., Ибрагимов С.С., Мирзаев Ш.М. Экспериментальное исследование оптимального режима работы наклонно-многоступенчатой лабораторно-опытной опреснительной установки. // Проблемы информатики и энергетики. Ташкент. 2018. №.4. С. 66-79.

3. Мирзаев М.С., Самиев К.А. Қуёш чучитгич-қуритгич қурилмасида иссиқлик жараёнларини тадқиқ қилиш.// Фан ва технолгиялар тараққиёти.-Бухоро. 2018. №3. Б. 106-111.

4. Мирзаев М.С., Самиев К.А., Мирзаев Ш.М. Экспериментальное исследование расстояния между испарителем и конденсатом наклонно-многоступенчатой опреснительной установки.// Гелиотехника. 2018. № 6. С.27 -34.

5. Мирзаев М.С. Тепло - энергетические характеристики солнечной опреснительной установки с учетом скрытую теплоту конденсации.// Проблемы информатики и энергетики. Тошкент. 2019. №4.С.79-85

УДК 517.98

MATRITSALAR ALGEBRASIDA 2-LOKAL IKKI TOMONLAMA KO'PAYTIRISHLAR TAVSIFI

Arziqulov Farhodjon Ne'matjonovich
fizika-matematika fanlar doktori
Solijanova Kamolaxon Abdushukur qizi
o'qituvchi
Andijon Davlat Universiteti
E-mail: agsu_info@edu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqola 2-lokal ikki tomonlama ko'paytirishlarni tavsiflashga bag'ishlangan. Bunda 2-lokal ikki tomonlama ko'paytirish tushunchasi maqolada quyidagicha kiritilgan. Har qanday barcha komponentalari musbat bo'lgan matritsalar yordamida aniqlangan Δ ikki lokal ikki tomonlama ko'paytirish uchun barcha $X \in M_n(\mathbb{C})$ matritsalarida $\Delta(X) = AXA$ tenglikni qanoatlantiruvchi $A \in M_n(\mathbb{C})$ matritsa mavjudligi isbotlangan. Shuningdek, agar ixtiyoriy barcha komponentalari musbat funksiya bo'lgan matritsalar yordamida aniqlangan $\Delta: \mathbb{R}[\mathbb{Z}] \rightarrow \mathbb{R}[\mathbb{Z}]$ ikki lokal ikki tomonlama ko'paytirish berilgan bo'lsa, u holda barcha $X \in M_n(\mathbb{C})$ matritsalar uchun $\Delta(X) = AXA$ tenglikni qanoatlantiruvchi $A \in M_n(\mathbb{C})$ matritsa mavjudligi isbotlangan.

Kalit so'zlar: Ikki o'lchamli matritsalar algebrasi, 2-lokal ikki tomonlama ko'paytirish, uzluksiz funksiyalar algebrasi.

2-lokal ikki tomonlama ko'paytirish

Ta'rif. Aytaylik $M_n(\mathbb{C})$ kompleks sonlar maydoni ustida aniqlangan o'lchovli matritsalar algebrasi bo'lsin. Agar $\Delta: M_n(\mathbb{C}) \rightarrow M_n(\mathbb{C})$ akslantirish uchun ixtiyoriy $x, y \in M_n(\mathbb{C})$ matritsalarini olganda, shunday $A \in M_n(\mathbb{C})$ mavjud bo'lsaki, bunda $\Delta(x) = AxA$, $\Delta(y) = AyA$ tengliklar bajarilsa, u holda Δ ikki lokal ikki tomonlama ko'paytirish deyiladi.

Ushbu kiritilgan tushuncha bo'yicha quyidagi lemma o'rinlidir. Aytaylik Δ bu $M_n(\mathbb{R})$ ikki o'lchovli matritsalar algebrasida barcha komponentalari musbat bo'lgan matritsalar yordamida aniqlangan ikki lokal ikki tomonlama ko'paytirish bo'lsin.

Lemma 1. o'lchovli matritsalar algebrasida, shunday $A \in M_n(\mathbb{R})$ matritsa mavjudki, barcha birlik $e_{ij} \in \mathbb{R}[\mathbb{Z}]$, $i, j = 1, 2, \dots, n$ matritsalar uchun Δ ikki lokal ikki tomonlama ko'paytirishda $\Delta(e_{ij}) = Ae_{ij}A$ tenglik bajariladi, ya'ni:

$$\Delta(e_{ij}) = Ae_{ij}A, \quad i, j = 1, 2, \dots, n$$

Isbot.
$$\Delta(e_{ij}) = \mathbb{R}(ij, \mathbb{Z})e_{ij}\mathbb{R}(ij, \mathbb{Z}) = \left(\begin{matrix} \mathbb{R}^i & & \\ & \mathbb{R}^j & \\ & & \mathbb{R}^{\mathbb{Z}-1} \end{matrix} \cdot \mathbb{R}^j \right) \mathbb{R}(ij, \mathbb{Z})$$

(ij) $G(\mathbb{Z})$, $i, j, \mathbb{Z}, \mathbb{Z} = 1, 2, \dots, n$

Bu yerda

$$\mathbb{R}(ij, \mathbb{Z}) = \mathbb{R}(\mathbb{Z}, ij)$$

Birlik matritsalar uchun ikki lokal ikki tomonlama ko'paytirishni bittadan matritsa uchun hisoblab chiqamiz. Quyidagi tengliklar $i, j = 1, 2, \dots, n$ bo'lganda o'rinli bo'ladi:

$$\begin{aligned} a_{ij} a_{ij} &= a_{ij} a_{ij} = a_{ij} a_{ij} = \dots = a_{ij} a_{ij} \\ &= a_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij} = \dots = a_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij} \end{aligned}$$

Bu yerda, ravshanki, $a_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij}$ ifoda tushib qoldiriladi.

Teorema 1. Aytaylik R bu ixtiyoriy maydon, Δ bu $M_n(R)$ ikki o'lchovli matritsalar algebrasida barcha komponentalari musbat bo'lgan, ya'ni $a = \{a_{ij}, a_{ij} > 0\}$ bo'lgan, matritsalar yordamida aniqlangan ikki lokal ikki tomonlama ko'paytirish bo'lsin. U holda shunday $X \in M_n(R)$ matritsa mavjudki bunda ixtiyoriy $Y \in M_n(R)$ matritsa uchun $\Delta(X) = XY$ tenglik bajariladi, ya'ni Δ ikki tomonlama ko'paytirish bo'ladi.

Isbot. Ixtiyoriy $a \in M_n(R)$ element olamiz. Aytaylik $\{a_{ij}\}_{i,j=1}^n$ – shunday matritsalar sistemasiki quyidagi tengliklar bajarilsin

$$\begin{aligned} \Delta(a) &= a_{ij} a_{ij} \\ \Delta(a_{ij}) &= a_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij}, \quad i, j = \overline{1, n} \end{aligned}$$

1-Lemmaga ko'ra, shunday X mavjudki,

$$\Delta(a) = a_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij} = a_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij}, \quad i, j = \overline{1, n}$$

tengliklar o'rinli bo'ladi. Tenglikdagi ko'paytmalarning barcha komponentalarini tenglab chiqamiz:

$$a_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij} = a_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij}, \quad i, j = \overline{1, n}$$

Ushbu tenglikdan quyidagi tengliklar sistemasini hosil qilamiz:

$$\begin{cases} a_{ij} a_{ij} = a_{ij} a_{ij} \\ a_{ij} a_{ij} = a_{ij} a_{ij} \end{cases} \quad (1)$$

Ushbu sistema i – ustun, j – satr komponentlarini tenglaydi.

Ushbu tengliklar sistemasini quyidagi matritsalar tengliklariga qo'llaymiz.

$$\Delta(a) = a_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij} \quad i, j = \overline{1, n}. \text{ U holda } (1) \text{ tenglikka ko'ra}$$

$$\Delta(a) = a_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij} = \left(\sum_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij} \right) \cdot a_{ij} = \left(\sum_{ij} \left(\sum_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij} \right) a_{ij} \right)$$

Agar $i = j$, va $j = i$ bo'lganda

$$\sum_{ij} \left(\sum_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij} \right) a_{ij} = \sum_{ij} \left(\sum_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij} a_{ij} \right) a_{ij} = (a_{ij} a_{ij})_{ij}$$

ij

$\varnothing=1$

$\varnothing=1$

Har bir $\delta(ij)\delta\delta(ij)$ ko'paytma matritsaning j – qator va i – ustun komponentasi $(\delta\delta\delta)_{ji}$ ga teng, bunda $i, j = \overline{1, n}$

$$\Delta(\delta) = \delta(11)\delta\delta(11) = \delta(12)\delta\delta(12) = \dots = \delta(\delta\delta)\delta\delta(\delta\delta)$$

Tengliklardan

$$\Delta(\delta) = \delta\delta\delta$$

tenglik kelib chiqadi.

Demak, shunday $A \in M_n(\mathbb{C})$ borki ixtiyoriy $x \in M_n(\mathbb{C})$ olinganda

$$\Delta(X) = AXA$$

tenglik o`rinli bo`ladi. Teorema isbotlandi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Šemrl, P. (1997) Local automorphisms and derivations on $B(H)$. *Proceedings of the American Mathematical Society*. 125(9). Pp. 2677-2680.
2. Kim S., Kim J. (2004) Local automorphisms and derivations on M_n . *Proceedings of the American Mathematical Society*. 132 1389-1392.
3. Lin Y., Wong T. (2006) A note on 2-local maps. *Proceedings of the Edinburgh Mathematical Society*. 49. Pp. 701-708.
4. Ayupov Sh., Kудaybergenov K. (2012) 2-local derivations and automorphisms on $B(H)$. *Journal of Mathematical Analysis and Applications*. 395. Pp. 15-18.
5. Ayupov Sh., Arzikulov F. (2014) 2-Local derivations on semi-finite von Neumann algebras, *Glasgow Mathematical Journal*. 56. Pp. 9-12.
6. Ayupov Sh., Kудaybergenov K. (2015) 2-Local derivations on von Neumann algebras. *Positivity*. 19. Pp. 445-455.
7. Ayupov S., Arzikulov F. (2017) 2-Local derivations on associative and Jordan matrix rings over commutative rings. *Linear Algebra and its Applications*. 522. Pp. 28-50.
8. Ayupov Sh.A., Arzikulov F.N. (2018) Description of 2-local and local derivations on some Lie rings of skew-adjoint matrices. *Linear and Multilinear Algebra*. 9(26). Pp. 31-17
9. Ayupov Sh.A., Arzikulov F.N. (2017) 2-Local Derivations on AW^* -Algebras of Type I. *Lobachevskii Journal of Mathematics*. 1(38). Pp. 148-161.

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

**ДИСТАНЦИОННЫЕ
ВОЗМОЖНОСТИ И ДОСТИЖЕНИЯ
НАУКИ**

(Май-Июнь, 2021)

г.Киев 2021